

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIYATLI VA SAYOHİYATLI  
YOSHLARNI TARBIYALASHGA DOIR QARASHLARI**

**MAHMUDKXODJA BEHBUDI'S VIEWS ON EDUCATING SPIRITUAL  
AND ENLIGHTENED YOUTH**

**ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ НА ВОСПИТАНИЕ  
ДУХОВНОЙ И ПРОСВЕЩЕННОЙ МОЛОДЕЖИ**

*Toshov Muxiddin Jo`raboyevich,  
p.f.n dotsent, Oriental universiteti.*

*O`rinova Xadiyaxon Nizomiddinovna  
Oriental universiteti 1-bosqich magistranti  
E-mail: [xadiyao`rinova26@gmail.com](mailto:xadiyao`rinova26@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada jadid ma'rifatparvar olimi, pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning jamiyatga doir qarashlari, uning me'rosini zamonaviy yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyatli haqida fikrlar bildirilgan. Behbudiyning yoshlarni tarbiyalashga oid g'oyalari o'z davrida milliy ma'rifatparvarlik harakatining asosiy omillaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, bugungi kunda ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda har tamonlaman sayohiyatli yoshlarni tarbiyalash ahamiyatli tamonlari haqida fikr mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, sayohiyatli yoshlar, jadid, ma'rifatparvarlik, qobiliyat, ozodlik, tenglik.

**Abstract.** The article presents the views of the modern enlightener, educator Mahmudkhodja Behbudi on society, the significance of his legacy in educating modern youth. Behbudi's ideas on educating youth were formed in his time as one of the main factors of the national enlightenment movement and still serve as an important basis today. The article presents ideas on the importance of educating young people in all aspects of society.

**Keywords:** modern, enlightened youth, modern, enlightenment, ability, freedom, equality.

**Аннотация.** В статье представлены взгляды современного просветителя, педагога Махмудходжи Бехбуди на общество, значение его наследия в воспитании современной молодежи. Идеи Бехбуди о воспитании молодежи сформировались в его время как один из главных факторов движения национального просвещения и до сих пор служат важной основой. В статье представлены идеи о важности воспитания молодежи во всех аспектах общества.

**Ключевые слова:** современный, просвещенная молодежь, современный, Просвещение, способности, свобода, равенство.

**Kirish:** Bugungi kunda yoshlarni intellektual salohiyatili, zamonaviy yetuk kadrlar qilib tarbiyalash har bir kelajagi bor mamlakatning asosiy strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "...hech shubhasiz, iste'dodli o'g'il-qizlarimiz ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda erishayotgan katta yutuqlari bilan ham Yangi O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda. O'quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalini qo'lga kiritib, o'z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi" [1;]-deya takidlagan fikrlari juda quvonarli albatta, lekin yoshlarimizning bugungi global taraqqiyot davrida tinimsiz izlanishda, o'sishda va rivojlanishda bo'lishi zamon talabidir.

**Adabiyotlar tahlili:** Yaqin o'tmishga nazar tashlab jadidlardan nafs jilovini, yo'qchilig-u to'qchilik ustida fikrlashni, vatan va tuproq nima ekanligini o'rganish mumkin. Ma'lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o'z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo'lida sarflashga intildi, o'rni kelganda mablag'ini ham ayamadi. Adib, publitsist, pedagog, olim, din va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan va yetakchilaridan biri edi. U "ma'rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi. Shuningdek, Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh qilinishini millatning isloh etilishiga qiyosladi va uni umummilliy g'oya deb bildi. Millatga "o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun"[3;] – deya murojaat qilib, o'zi ilgari surgan milliy g'oyani barcha targ'ib qilishi zarurligini ta'kidladi. Behbudiyning umummilliy g'oyasi targ'iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar chiqara boshlagan gazeta-jurnallar rosmianasiga fikr almashish, ilg'or g'oya va fikrlarni targ'ib etish, bahslashish maydoniga aylangan, demokratik qadriyatlarni o'zida aks ettirgan, fikrlar qaramaqarshiligini ko'tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi tanqidiy maqolalarni yoritadigan matbuot nashrlari edi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirlik qilgan "Oyina" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatish maqsadida millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyodagi ahvolga oid turlituman maqolalarni chop etdi. Shuningdek, ayni yo'nalishlardagi bahslar uchun minbar vazifasini o'tadi.

**Asosiy qism.** Bu o'rinda mustamlaka davridagi Turkiston diyori yoshlarining ozodlik, erkinlik va tenglik kurashchilari hisoblangan jadidlar marifatparvarlim harakatining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik va ma'rifiy me'rosi beqiyosdir. U ozodlik, erkinlik va tenglikka ega bo'lishining asosiy sharti sifatida ta'lim tizimi orqali yosh avlodni ilim salohiyatini oshirish deb bildi va u bu borada juda katta inqilobiy o'zgarishlarga turtki berdi. Birgina misol uning "...Albatta, munga javob berursizki, bizni ustimizdan qaraydurgonlarni(ng) «ilmi zamoniy»si bizdan ziyoda va mehnatkashlarni ilmi bizga ham emas. Mana sabab shudur. Biz ham dermizki, javobingiz durust. Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlarig'a xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun, kirib vazifa olmoqg'a va ish qilmoqg'a ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtamlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatg'a xizmat etsa. (Din va millatg'a xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniyi tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz!"[2;] – deya bildirgan fikrlarining o'zi u davr uchun qanchalar muhimligining isbotidir.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasi yoshlarining bilimli, madaniyatli va siyosiy faol bo'lishlari uchun ilg'or g'oyalari bilan birga amaliy faoliyatda ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir. U o'z amaliy faoliyatida aqliy tarbiyaning hayotda, ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etishini, yosh avlodni qobiliyatli, yaxshi turmush egasi qilib kamol toptirishda asosiy manba bo'lishini anglaganlar.

Mutafakkir o'sha davr maktablari uchun "Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy"(Qisqacha umumiy jo'g'rofiya), "Kitob ul-atfol"(Bolalar uchun kitob), "Muxtasari tarixi Islom"(Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jo'g'rofiyai imroniy", "Muxtasati jo'g'rofiyai Rusiy"(Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi) darsliklarini yaratib, millatni savodli qilishga, murg'ak qalbda millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsada hissa qo'shishiga ishondi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'ziga xos siyosiy qarashga ega bo'lib, u o'z zamonasining yoshlarini siyosiy ongli va siyosiy bilimli shaxslar sifatida voyaga yetkazishni orzu qilgandi.

Professor Begali Qosimov(1952-2005) to'g'ri ta'kidlaganidek, u "XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi" sifatida yoshlarni siyosiy tarbiyalash masalasida muhim fikrlarga ega edi, biroq uning siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari o'rganilgan emas. Behbudiy bundan yuz yil muqaddam o'z davriga nisbatan ilg'or fikrli ravishda yoshlarni siyosiy tarbiyalashning quyidagi ikki muhim omilini ta'kidlab ko'rsatadi: Jamiyatning bir bo'g'ini bo'lmish oiladagi ma'naviy - axloqiy tarbiya haqida gapiradigan bo'lsak, bu bolalarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va halollik, hurmat, mas'uliyat, hamdardlik kabi ijobiy xislatlarni yoshligidan sindirish

jarayonidir. Globallashuv davrida milliy va ma'naviy qadriyatlarga – ommaviy madaniyatning tahdidi kuchayib bormoqda. Bu, avvalo, yosh avlodni bilim olish, vatan va yurt ravnaqi, rivojlanishi uchun hissa qo'shishi lozimligiga raxna solib, yoshlarning ongini turli yot tushunchalar bilan yog'irilgan illatlar bilan zaharlanishiga olib kelmoqda. Buning to'laqonli davosi hisoblangan milliy ma'naviy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lgan ma'naviy - axloqiy tarbiya ajdodlarimizning ibratli hayoti va asarlarida o'z aksini topgan. Darhaqiqat, “turli mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarga qarshi - bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Shuningdek, Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh qilinishini millatning isloh etilishiga qiyosladi va uni umummilliy g'oya deb bildi. Millatga “o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”[4; 156 b], – deya murojaat qilib o'zi ilgari surgan milliy g'oyani barcha targ'ib qilishi zarurligini ta'kidladi. Behbudiyning umummilliy g'oyasi targ'iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar chiqara boshlagan gazeta-jurnallar rosmenasiga fikr almashish, ilg'or g'oya va fikrlarni targ'ib etish, bahslashish maydoniga aylangan, demokratik qadriyatlarni o'zida aks ettirgan, fikrlar qaramaqarshiligini ko'tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi tanqidiy maqolalarni yoritadigan matbuot nashrlari edi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirlik qilgan “Oyina” jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatish maqsadida millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyodagi ahvolga oid turlituman maqolalarni chop etdi. Shuningdek, ayni yo'nalishlardagi bahslar uchun minbar vazifasini o'tadi. Behbudiy o'z zamonida millatning zabun ahvolini, Chor Rossiyasi yuritayotgan bosqinchilik siyosatini ko'rib o'zi va xalqining haqini talabqilishning yagona yo'li yosh avlodni bilimli va ma'naviyatli qilish ekanligini tushundi va targ'ib qilishni boshladi.

Zamon talabiga xos ishlab chiqilgan pedagogik tamoyillar – o'qituvchining ta'lim va, tarbiyaga, o'quvchiga, bilimga, o'rgatish usullariga bo'lgan shaxsiy qarashlari, e'tiqodi va qadriyatlari – o'quv jarayonining yo'nalishi, sifati va samaradorligini belgilab beradi. Binobarin, shaxs pedagogik qarashlarining ta'limiy jarayonga qanday ta'siri ta'lim mazmunining tanlanishi, o'qitish uslublari, o'quvchiga bo'lgan munosabat, baholash mezonlari hamda tarbiyaviy ishlarga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini unutmashlik zarur [5; b-582-586]. Xususan, har bir davrda muayyan shaxsning pedagogik qarashlari nafaqat ta'lim jarayonining shakli va mazmunini belgilaydi, balki o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning mustaqil fikrlovchi, jamiyatga foydali inson bo'lib kamol topishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, bundan qariyb yuz ellik yil avval Turkiston o'lkasida keng yoyilgan va xalq madaniy hayotini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan jadidchilik harakatlarining ustuvor yo'nalishi hisoblangan ta'limiy islohotning taniqli namoyandalarining pedagogik qarashlarini to'laqonli o'rganish va tadqiq etish barobarida, ularni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etishga bugunning eng dolzarb

masalalaridan biri sifatida qaralmog'i hozirgi zamonaviy tadqiqotlar tizimi samaradorligi uchun muhimdir.

**Xulosa:** Bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugungi kundagi jamiyatimiz oldiga qo'ygan asosiy maqsaddir. Unga ershish uchun ota-onalar farzandlari bilan shug'ullanishlari va o'zlari ham yaxshi xulqatvorga ega bo'lishlari shuningdek, o'z atrof-muhitlariga befarq bo'lmasliklari lozimdir. Buning aksini biz "Padarkush" dramasi orqali ko'rishimiz Behbudiyning adib sifatida ilm, bilim va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi o'sha davr kishisi nuqtayi nazaridan ko'ra olganini ifodalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Mahmudxo'ja Behbudi. «Oyna» jurnali, Samarqand. 1914 yil, 21-son, 390—391-betlar.
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudi. -Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil
4. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudi. – T.: Yoshlarnashriyot uyi, 2022.
5. Hamroyeva, X. (2022). Oila tarbiyasi asoslari (yosh oilalar misolida). Scientific progress, 3(4).
6. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01),
7. Abdug'aniyev O. "Jadid maktablari va ularning pedagogik asoslari." Toshkent,2002.